

## **Ingliz tilidagi so‘z urg‘usini o‘qitishning zamonaviy metodlari**

**Xolmatov Shaxriyor**

**Fardu o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaing lizleksik urg‘usining zamaonaviy va samarali o‘tish metodlari yoritiladi.

**Abstract:** This article covers modern and effective methods of transition of English lexical stress.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные и эффективные методы перехода английского лексического ударения.

**Kalit so‘zlar:** model, leksikurg‘u, audiolingual metod

**Key words:** model, lexical emphasis, audiolingual method

**Ключевые слова:** модель, лексический акцент, аудиолингвальный метод.

So‘z urg‘usi ingliz tilidagi nutqning muhim elementi sifatida gap urg‘usi va ritmni o‘rganishda oldin talabalar bilishi zarur bo‘lgan lisoniy hodisadir. O‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari va yuqoridagi tilshunoslar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida ingliz tilida so‘z urg‘usining qay darajada murakkab hodisa ekanligiga ishonchimiz komil bo‘ldi. Demakki, bunday leksik urg‘uni o‘qitish jarayoni ham oson kechmaydi. Faqatgina, aniq yo‘naltirilgan samarali usullar orqali pedagoglar ijobiy natijalarga erishishi mumkin deb o‘ylaymiz.

Qiyinchiliklarning asosiy sababi, aytib o‘tganimizdek ingliz tilidagi urg‘uning o‘ziga xos jihatlarning ko‘pligi, ya‘ni uning o‘zgaruvchanligi, urg‘uga ta‘sir qiluvchi omillar ko‘pligi, tilshunoslarning urg‘unormalariga nisbatan qarama-qarshi fikrlarining mavjudligi, nutqda o‘zbek tiliga nisbatan o‘z ahamiyatining ustunligi, uning boshqa til satihlari (morfologiya, leksikologiya, morfemika, etimologiya) bilan chambarchas bog‘liqligi, akustik va artikulyatsion belgilarining o‘ziga xosligi, darajalanish xossasining mavjudligidir. Til o‘rganuvchilar asosan qiyosiy aspektida tilni tahlil qilish orqali o‘zlashtirishlari oson kechadi. Afsuski, ingliz tilidagi urg‘uni o‘zbek tiliga taqqoslash mushkuldir.

Ingliz tilidagi urgʻuni oʻqituvchi mutaxassislar oldiga asosan quyidagi uch maqsadni qoʻyadi:

- Nima uchun ingliz tilidagi urgʻuning muhimligini isbotlash;
- Soʻz urgʻusi nima, u qanday hosil qilinishiga aniqlik kiritish;
- Soʻz urgʻusiga doir normalar, tendensiyalar va ulardagi istisnolar koʻrsatib berish;
- Qanday qilib leksik urgʻu qoidalarini tez va samarali oʻrganish yoʻllarini oʻzlashtirishni oʻrgatish;

Keltirilgan tamoyillar asosida mavjud qiyinchiliklarni yengish va urgʻu koʻnikmasini tez surʻatda shakllantirish uchun quyidagi maqbul yoʻllardan foydalanishni tavsiya qilamiz:

1. Audiolingval metoddan foydalanish: ushbu metod asosan talaffuz va tinglab tushunishni oʻrgatishga asoslangan chet tilini oʻqitish metodlaridan biridir.

Audiolingval soʻzi lotin tilidan olingan boʻlib, audire-tinglash, lingua-tilmaʼnolarini anglatadi. Agar “audiolingval metodi” atamasi soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, “tinglash-gapirishmetodi”, yaʼni “tilninglash-gapirish” yoʻli bilan oʻrganish maʼnosini anglatadi. [1:47] Ushbu metodning urgʻuni oʻqitishda samarililigini unda mavjud boʻlgan bir necha faktorlar ifodalaydi. Masalan, tildagi normalar avvalo ogʻzaki nutqqa tadbiiq qilinib, oʻqish va yozish tinglab tushunish va gapirish koʻnikmasidan keyin amalga oshiriladi. Koʻproq taqlid qilish va takrorlash mashqlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari tilni oʻrgatishda asosan autentik materiallardan, tilsohiblarining asl nutqlari yozib olingan tasmalar qoʻllaniladi.

Yuqoridagi ustunliklarga qaramay, ushbu metod ham baʼzi kamchiliklar dan xoli emas. Sababi, u ona tilini dars jarayonidan chiqarib tashlashga asoslangandir. Urgʻuni oʻrganish esa tillarni oʻzaro taqqoslab oʻrganishni va shu orqali yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan xatoliklarni bartaraf etishni taqozo etadi. Demak, ushbu metodni yanada rivojlantirish, mukammallashtirish maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz.

1. Dastlab urgʻuning ahamiyati va uni hosil qilishni oʻrganishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Aytaylik urgʻuning ahamiyatini eng oddiy yoʻl bilan tushuntirish uchun oʻqituvchi ingliz tilidagi kamida ikki boʻgʻinli boʻlgan soʻzni tanlab olib, urgʻuni soʻzning turli boʻgʻinlarida yaqqol qoʻllaydi. [2:163] Masalan, COMputer, comPUter, computer soʻzlari kabi. Soʻngra oʻqituvchi oʻquvchilardan qaysibir variant eng maqbul kelayotganini soʻraydi. oʻrganuvchilar darhol maqbul urgʻuga ega soʻzni ajratib oladilar (comPUtersoʻzini). Bu jarayonda ular qolgan ikki soʻzda qoʻllangan natoʻgʻri urgʻuning nutqqa qay darajada salbiy taʼsir qilishi mumkinligini ham tushunibyetadilar. Buning uchun oʻqituvchi soʻzlarni kontekstda ham qoʻllab urgʻuni koʻrsatib beradi. Bu esa talabalarning urgʻu va nuqsonsiz nutq oʻrtasidagi oʻzaro aloqani anglab yetishlariga yordam beradi.

Urgʻuni hosil qilish hamma tillarda ham bir xil kechmaydi. Biz yuqorida urgʻuni fonetik tabiatiga koʻra turlarga ajratayotib ingliz va oʻzbek tillarining dinamik urgʻu oilasiga kirishini taʼkidlab oʻtgan edik. Demak har ikkala til urgʻusi uchun ham zarb koʻproq ahamiyatga egadir. Masalaning ikkinchi tomoni ingliz tilidagi urgʻuni xosil qilishda faqatgina zarbning oʻzi ishtirok etmasligidadir. Shuning uchun dastlab urgʻu oʻrnidan koʻra uni xosil qilish oʻrgatilishi maʼqulroq degan fikrdamiz. Buning uchun oʻqituvchi maʼnoga ega boʻlmagan boʻgʻinlar ketma-ketligini sunʼiy tarzda yaratib undagi bir boʻgʻinni qolganlariga qaraganda choʻziqroq, balandroq, aniqroq va tovushning yuqori toni orqali talaffuz qiladi (baBIbakabi). Bu esa til oʻrganuvchilarda urgʻu konseptiga qoʻyilgan ilk qadamdir. Keyinchalik ushbu mashqni real soʻzlarga tadbiq qilinadi (diREctorkabi).

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ходжаев М, Қахҳорова М. Чет тилини ўқитиш методикаси. —Т.: Fan vatexnologiya, 2013.
2. Stanley S. On the Stress System of English.// WORD. Volume 2. Number 3. Mexico city. 1946.
3. [www.professorjackrichards.com/integrating-word-stress-into-lessons/](http://www.professorjackrichards.com/integrating-word-stress-into-lessons/)
4. <https://www.teachingenglish.org.uk>